

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Xalqaro kredit liniyalari

## Xalqaro taraqqiyot assotsatsiyasining kredit liniyasi

Maqsadi - chorvachilik yo'nalishida

Xalqaro taraqqiyot assotsatsiyasining kredit liniyasi hisobidan chorvachilik yo'nalishida kreditlar ajratish shartlari (alohida shartlar):

Kredit miqdori - loyiha umumiy qiymatining 70%igacha

Kredit muddati:

- Loyihaning xususiyatidan kelib chiqqan holda 5-10 yilgacha (asosiy qarzdan 2 yilgacha imtiyozli davr asosida)
- Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 18 oygacha (9 oygacha imtiyozli davr asosida)

Foiz stavkasi (yillik) - 8% gacha

Kredit maqsadi:

- Qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik, echkichilik, quyunchilik va boshqalar;
- Parrandachilik (tuxum va broyler), baliqchilik, asalarichilik, ipakchilik;
- Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash, sovtutish va saqlash;
- Yem ishlab chiqarish (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali) hamda yem mahsulotlari sotib olish;

## Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kredit liniyasi

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan meva-sabzavotchilik yo'nalishida kreditlar ajratish shartlari (alohida shartlar):

Kredit maqsadi:

- Meva sabzavot sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun

Kredit miqdori - loyiha umumiy qiymatining 70%igacha

Kredit muddati:

- loyihaning xususiyatidan kelib chiqqan holda 5-10 yilgacha (asosiy qarzdan 2 yilgacha imtiyozli davr asosida)
- Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 18 oygacha (9 oygacha imtiyozli davr asosida)

Foiz stavkasi - 6 oylik LIBOR+XTTB spredi+0,2% Moliya vazirligi marjasi 2-3% bank marjasi (yillik 6,5-7,5%)

## Commerzbank (Germaniya) kredit liniyasi

Kredit maqsadi - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlardan uskunalar sotib olish bilan bog'liq investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

Kredit miqdori - Kamida 1 000 000 yevro

Kredit muddati - 5-7 yilgacha (Commerzbank tomonidan ko'rib chiqiladi)

Foiz stavkasi - yillik 5-7%

Loyiha tashabbuskorlari - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Valyuta turi - Yevro

Imtiyozli davr - 6 oygacha (Commerzbank tomonidan ko'rib chiqiladi)

Komission to'lovlar - Loyihani boshqarish komissiyasi - bir martalik kredit summasidan 1 % gacha

Eka sug'urta mukofoti - Eksport-kredit agentligi tomonidan belgilanadi (mazkur to'lov kredit hisobidan moliyalashtirilishi mumkin)

Kreditning qo'shimcha shartlari:

- Import shartnomasi summasining kamida 15% qismi tashabbuskor o'z mablag'lari hisobidan to'lanishi lozim
- Germaniya va Yevropa ittifoq davlatlari qatoriga kiruvchi mamlakatlardan uskunalar sotib olish lozim

### **Xalqaro kredit liniyalari evaziga taqdim etiladigan kreditlarning umumiy shartlari:**

Kredit ta'minoti:

- Bino-inshootlar
- Avtotransport va/yoki maxsus texnika vositalari
- Uchinchi shaxslar kafilligi
- Sug'urta polisi

Taqdim qilinadigan hujjatlar:

- Ariza
- Biznes-reja yoki texnik-iqtisodiy asosnoma
- Moliyaviy hisobotlar
- Kredit ta'minoti hujjatlari

Ta'minot hujjatlari:

Garov bo'lsa:

- Mulkni baholash hisoboti
- Kadastr hujjatlari, texpasport va/yoki texnadzor
- Garovga qo'yish bo'yicha ta'sischilar rozilik majlis bayoni

Uchinchi shaxs kafilligi bo'lsa:

- Kafil bo'layotgan korxonaning buxgalteriya balansi va ilovalari
- Auditor xulosasi
- Kafillik berish bo'yicha ta'sischilar rozilik majlis bayoni
- Ta'sis hujjatlari (guvohnoma, nizom, ta'sis shartnoma)

Sug'urta bo'lsa:

- Sug'urta shartnomasi va polisi

Xizmat turidan foydalanuvchilar:

- Import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltiriladigan mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan

loyiha tashabbuskorlari, kichik biznes sub'yektlari